

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA MOXIGUL XAYDAROVNA**

**BEGALI QOSIMOV HAYOT YO‘LI VA IJODINI ILMIY-BIOGRAFIK  
O‘RGANISH MUAMMOSI**

**10.00.02 - O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati  
mundarijasi**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Philological  
Sciences**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Ergasheva Moxigul Xaydarovna**

Begali Qosimov hayot yo‘li va ijodini ilmiy-biografik o‘rganish muammosi ..... 3

**Ergasheva Moxigul Xaydarovna**

The issue of scientific-biographical study of Begali Qosimov’s life and work..... 25

**Эргашева Махигул Хайдаровна**

Проблема научно-биографического изучения жизненного пути и творчества  
Бегали Касимова ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published work ..... 55

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA MOXIGUL XAYDAROVNA**

**BEGALI QOSIMOV HAYOT YO‘LI VA IJODINI ILMIY-BIOGRAFIK  
O‘RGANISH MUAMMOSI**

**10.00.02 - O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhDFil2474 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtiriladi.

**Ilmiy rahbar:**

**Jo‘raqulov Uzoq Haydarovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Yusupova Dilnavoz Rahmonovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**To‘rayeva Umriniso Rahmatovna**  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz))

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**H.A.Dadaboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, filol.f.d., professor

**Q.U.Pardayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, filol.f.d.,  
professor

**N.A.Jabborov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida adabiy-estetik tafakkur namunalari XIX asr o'rtalaridan e'tiboran uning ijodkori bilan birgalikda, ya'ni "asar+muallif" birligi asosida o'rganila boshlandi. Buning natijasida fanga yangi ilmiy tadqiqot metodlaridan biri – biografik metod kirib keldi va badiiy asarni uning ijodkori bilan kompleks tekshirishda muayyan natijalarga erishildi. Biografik metod hayotiy voqea, lahzadan ijodkor ruhiyatiga ko'chgan holatni hayot – ijodkor – asar butunligida tekshirib, matn ortidagi olamni ochib boradi. Matnda tiklangan tasvirning asoslarini topadi. Zero, yuksak ijod namunalari buyuk qalb egalarining iztirobi, tinimsiz, jonsarak mehnati natijasida yuzaga chiqar ekan, bunday ijod va uning mahsulini birgalikda tekshirish fanda ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida nazariy qarashlarni o'zgartirgan, rivojlantirib o'ziga xos ilmiy maktab yaratgan olimlar bisyor. Keyingi yillarda badiiy asar tahlilida yangicha tamoyillarni ishlab chiqqan adabiyotshunoslarning hayot yo'li, ijodi, ilmiy laboratoriyasi, individual xususiyatlari, adabiy manbaga yondashuv usullari, ular ilgari surgan ilmiy konsepsiyalarni o'rganishga ayricha e'tibor qaratilmoqda. Kengroq ma'noda shaxsning sermahsul ijodi millat tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi. Ayni damda fanni rivojlantirgan olimlarning ilmiy faoliyatiga chuqurroq kirish ilmda taraqqiyotga yetaklagan omillarni, ustuvor tamoyillarni belgilash, hayotga tatbiq etishga yo'naltiradi.

O'zbek adabiyotshunosligida jadidlar tomonidan yaratilgan adabiy merosni o'rganish g'oyat muhim vazifadir. Chunki: "Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmatini va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ'ib etish bizning ustuvor vazifamiz"<sup>1</sup>. Shu jihatdan jadid adabiyoti vakillari faoliyatini maxsus o'rgangan adabiyotshunos olim Begali Qosimovning hayot yo'li va ijodini ilmiy-biografik o'rganish, ilm-fan rivojida tutgan o'rni jahon adabiyotshunosligi kontekstida tekshirish va baholash adabiyotshunoslarning burchi, muhim vazifalardan biri deyish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, O'zbekiston

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga murojaati. <https://kun.uz>. 11.12.2023.

Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘ida adabiyotning ta’sir kuchini oshirish bo‘yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jadidshunos, serqirra olim B.Qosimovning faoliyatini tadqiq qilish, 1992-yildan ya’ni, olim 50 yoshga to‘lishi munosabati bilan boshlandi. Aynan, shu yili olimlar tomonidan matbuotda B.Qosimov ilmiy ijodiga xos xususiyatlar yuqori baholangan hamda olimning insoniy fazilatlariga keng o‘rin berilgan edi. Xususan, O‘zbekiston qahramonlari Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinov, Rustamjon Tojiboyev, Mahmud Sa’diy, Najmiddin Komilov, Sunnatilla Ahmedov, Abdug‘afur Rasulov, Jumaxo‘ja Nusratullo Atoulllo o‘g‘li<sup>2</sup> kabi ustozlarning maqolalarida olimning ilmiy ijodi va insoniy fazilatlari keng yoritilgan edi. Shu bilan birga Begali Qosimov hayoti, ilmiy-pedagogik faoliyati haqida bir qancha ishlar Sh.Yusupov, U.Dolimov, Q.Yo‘ldoshev, N.Jabborov, Sh.Rizayev, U.To‘rayevlar<sup>3</sup> tadqiqotlarida yoritildi.

Shuningdek, adabiyotshunoslik ilmida biografik metod va uning xususiyatlari bir qancha olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bu metodning kashfiyotchisi Sharl Sent Byov (1804-1869)<sup>4</sup> hisoblanadi. Keyingi yillarda fransuz ilmiy-adabiy muhitida A.Morua<sup>5</sup> mazkur metodning yorqin nazariyotchisi sifatida ko‘rsatiladi. Rus adabiyotshunosligida G.O.Vinokur, A.N.Ribnikov, V.B.Tomashevskiy, M.G.Yaroshevskiy, B.S.Meylax, V.V.Verestayev<sup>6</sup> hamda zamonaviy rus adabiyotshunosligida S.V.Berezkina, D.Y.Korvyakova, Y.N.Levina,

---

<sup>2</sup>Oripov A. Sharafigididov O. Izlagan olim b‘uladi / Vatan. – Toshkent, 1992. – №13; Tojiboyev P. Ma‘rifat fidoyisi / Vatan. – Toshkent, 1992. – №13; Ma‘mud Sa‘diy. Muallimning t‘yi / Vatan. – Toshkent, 1992. – №13; Komilov N. Tarix haqiqatini ayti sh zahmati / Xalq s‘zi. – Toshkent, 1992. – №245; Ahmedov S. Tariximizning tolmash tadqiqotchisi / ‘zbekiston ovozi. – Toshkent, 1992. – №248-249; Rasulov A. Ustozlar izidan. / Toshkent haqiqati. – Toshkent, 1992. – №172; Mu‘ammad Ali. Bir daraxtning mevalarimiz / Turkiston. – Toshkent, 1992. – №145-146; Nusratullo Atoullo ‘gli Jum‘azoda. Haqiqatlash olim / Ma‘rifat. – Toshkent, 1992. – №.103.

<sup>3</sup>Yusupov Sh. Dolimov U. Rizaev Sh. Fidokor olim / Vatan. – Toshkent, 1994. – №11; Yo‘ldoshev Q. Olimning oлами / ‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. – Toshkent, 2002. – №35; Jabborov N. Pok ruhi millatning kalbida. S‘nggi jadid kisasasi (Begali Qosimov zamondoshlari hotirasida. – Toshkent: Turon-ikbol, 2012. –B. 231; Nusratullo Atoullo ‘gli Jum‘azoda. Haqiqatlash olim / Ma‘rifat. – Toshkent, 1992. – №.103. T‘raeva U. ‘zbek jadid adabiyoti urganishda Begali Qosimov tadqiqotlarining ‘rni. Filol. fan. b. fals. dok... (PhD) diss. – Buxoro, 2022.

<sup>4</sup>Sent B‘v Sh. Literaturnye portrety. Kriticheskie очерки. – M.: Художественная литература, 1970.

<sup>5</sup>Morua A. От Монтеня до Драгона. – M.: Радуга, 1983.

<sup>6</sup>Винокур Г.О. Биография и культура.– M.: Государственная академия художественных наук, 1927; Томашевский В.Б. Пушкин. – M. –Л.: Издательство академик наук СССР, 1961; Томашевский В. В. Пушкин. Работа разных лет. – M.: Книга, 1990; Ярошевский М.Г. Биография ученого как науковедческая проблема. – M.: Человек науки, 1974; Мейлах Б.С. Пушкин и русский романтизм. – M.: Человек науки, 1937; Вересаев В.В. Живая жизнь. – M.: Республика, 1999.

Y.A.Medvedeva<sup>7</sup>, o‘zbek adabiyotshunosligida A.Rasulov, U.Jo‘raqulov, B.Karimov, B.Yo‘ldoshev, D.Quronov, O.Adizova, Z.Quvonov, Z.Rahmonova<sup>8</sup> kabi adabiyotshunos olimlarning doktorlik, nomzodlik dissertatsiyalarida, monografiya va maqolalarida, adabiyotshunoslik hamda adabiy tanqidchilikka oid darslik, o‘quv qo‘llanmalarida bu muammoning ayrim qirralari, tafsilotlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Jahon va o‘zbek adabiyotini qiyosiy-tipologik o‘rganishning umumnazariy muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** adabiyotshunos Begali Qosimovning hayot yo‘li va ilmiy faoliyatini biografik aspektda ochib berish, jadidshunoslikka qo‘shgan hissasi, muayyan adabiy hodisaga yondashuv usullarini, badiiy asarni baholash prinsiplari, nazariyotchi olim sifatidagi qarashlarining ilmiy va amaliy mohiyatini nazariy asoslashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

adabiyotshunoslikda biografik metodning tutgan o‘rni, nazariy funksiyalarini aniqlash, yozuvchi, shoir, dramaturg va adabiyotshunos olim ijodiga ilmiy-biografik yondashuv tarixini tahliliy o‘rganish orqali uning metodologik asoslarini yoritib berish;

Begali Qosimov hayot yo‘li, ijodiy merosi, ilmiy asarlarining manbalari, adabiyot tarixi, jadidshunoslik, adabiy tanqid, milliy mafkura va ma’naviyatga oid asarlarini tavsiflash, tarixiylik prinsipiga ko‘ra talqin qilish, ilmiy tasnif etish;

olimning hali ilmiy muomalaga kiritilmagan qo‘lyozmalari, nashr etilgan tadqiqotlarining qo‘lyozmalari, nashr etilgan tadqiqotlarining variantlari, yigirmaga yaqin arab, lotin, va krill yozuvida yozilgan kundaliklarini Begali Qosimov ilmiy fenomeni tadqiqiga jalb etish, shu asosda olim ilmiy biografiyasiga xos nazariy kriteriyalarni shakllantirish;

B.Qosimov tadqiqotchiligidan badiiy-estetik, madaniy-ma’rifiy, milliy-manaviy, ijtimoiy-tarixiy omillari negizida olim talqin yo‘liga xos ilmiy metodologiya xususiyatlarini aniqlash, B.Qosimovga xos tahlil, talqin, tadqiq va baholash prinsiplarini belgilash, uning o‘z ilmiy obyektlariga yondashuv usullarini tayin etish.

---

<sup>7</sup>Березкина С.В. Проблема историко-культурного контекста в научной биография А.С. Пушкин. Дисс... д-ра. филол. наук. – СПб., 2010; Корвякова Д.Ю. Жанр писательской биография в творчестве В. Скотта. Дисс... д-ра. филол. наук. – Череповец, 2002; Левина Е.Н. Проблема биографизма в творчестве И.С. Тургенева 1840-1850х год. Дисс... д-ра. филол. наук. – СПб., 2008.

<sup>8</sup>Жўракулов У. Биографик метод. // Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, – 2006. – Б. 10-27; Расулов А. Ҳозирги ўзбек танқидчилигида таҳлил ва талқин муаммоси. Филол. фан д-ри. дисс... автореф. – Тошкент, 2002; Каримов Б. Биографик метод. // Рухият алифбоси. – Тошкент, Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2016. – Б. 168-172; Йулдашев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигида услуб ва маҳорат муаммолари (60-70 йиллар). Филол. фан д-ри. дисс... автореф. – Тошкент, 2000; Қуронов Д. Биографик метод. // Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002; Адизова О. Адабиётшунос Азиз Қаямов тадқиқотларида биографик методнинг ўрни. Филол. фан. б. фалс. док... (PhD) дисс. – Қарши, 2018; Қувонov З. Абдуқодир Ҳайитметовнинг адабиётшунослик фаолияти. Филол. фан. б. фалс. док... (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2020; Раҳмонова З. Адабиётшуносликда ижодий индивидуаллик муаммоси (проф Б. Саримсоқов ижодий мероси мисолида). Филол. фан. б. фалс. док... (PhD) дис. – Тошкент, 2023.

**Tadqiqotning obyektini** professor Begali Qosimov hayot yo‘li, ilmiy merosi, olim shaxsiy arxivi, shu arxivda saqlanayotgan yigirmaga yaqin daftardan iborat arab va kirill yozuvidagi “Kundaliklari”, do‘stlari, shogirdlari, qarindoshlarining olim haqidagi tadqiqot qaydlari va xotiralari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmetini** B. Qosimov hayot yo‘li va ijodini ilmiy biografik o‘rganish, olim ilmiy ijodining individual jihatlari, Begali Qosimovning jadid adabiyotiga doir izlanishlari, olimning tadqiq usullari va mezonlari muammosi doirasida tadqiq etish tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda biografik, tarixiy-qiyosiy, sotsiologik metod hamda statistik tahlil, tasnif va tasviflash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

biografik metodning qonuniy hodisa sifatida maydonga kelishi, uning shakllanish omillari, adabiyotshunoslik tarixida tutgan o‘rni, ijodkor va ilmiy asar munosabatini tipologik yoritishdagi o‘ziga xosligi, biografik obyekt tarjimai holini ijtimoiy, maishiy, psixobiografik sathlarda analiz va sintez qilishdagi amaliy natijalari, metodologik asoslari aniqlangan;

professor Begali Qosimovning adabiyot tarixi, jadidshunoslik, adabiy tanqid, milliy mustaqillik mafkurasiga doir tadqiqotlari millat va milliylik fenomeniga ko‘ra ilmiy tavsif etilgan, ularning nazariy mohiyati tarixiylik+estetiklik kategoriyasi asosida dalillangan;

professor Begali Qosimovning shaxsiy arxivi negizida olim biografiyasi va ilmiy merosini psixobiografik talqin etish uchun asos bo‘ladigan arab, lotin va kirill alifbolarida yozilgan yigirmadan ortiq kundaliklari, maktublari, rasmiy yozishmalari ilk bor adabiyotshunos fenomenini yoritish uchun istifoda etilgan, ayni noyob manbalarning olim ilmiy biografiyasini ochib berishdagi individual o‘rni aniqlangan;

olim tadqiqotlariga xos badiiy-estetik, madaniy-tarixiy, falsafiy-ma’rifiy, milliy-ma’naviy, ijtimoiy-psixologik talqin tamoyillaridan kelib chiqib, Begali Qosimov ilmiy metodologiyasi asoslari belgilanib, buning ilmiy-adabiy jarayonga oid individual-biografik hodisa ekanligi nazariy asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Begali Qosimovning hayot yo‘li va ijodini ilmiy-biografik tekshirishda biografik metod va uning tamoyillari muhim asosga egaligi hamda bu metodning ilmiy tadqiqot va o‘quv jarayoni uchun xizmat qilishi dalillangan;

olimning ilmiy individualligi masalasi o‘rganilgan, Begali Qosimov individualligi obyektivlik, rostgo‘ylik, qisqalik, samimiylik kabi estetik tamoyillardan iborat ekanligi ochib berilgan;

olim ijodining milliy tarix, ijtimoiy ideal va falsafiy tafakkurning milliy ruhiyat kontekstida talqin etilishi natijasida millat va milliylik fenomenlariga oid ilmiy xulosalar yosh avlod ma’naviyati, ilmiy va badiiy tafakkurida muhim o‘rin tutishi isbotlangan;

Begali Qosimovning davrlashtirish, alohida siymolar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarining badiiy-estetik ahamiyati va o‘ziga xos jihatlari ilmiy dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, qo'llanilgan ilmiy usullar va nazariy ma'lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida tahlil va talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, Begali Qosimov hayot yo'li va ijodini ilmiy-biografik o'rganish adabiyotshunoslikdagi mazkur turdagi tadqiqotlarga doir ilmiy-nazariy qarashlarni boyitishi bilan izohlanadi. Zero, asar ijodkorning tafakkur mahsuli ekan, uni yaratgan shaxs va ijodga ko'chib o'tgan omillar badiiy tahlilda katta natija beradi, matnning hayotiy asoslari dalillanadi. Biografik tekshirish matnning nazariy qismlarini qulay, qiziqarli, hayotiy ochib berishi bilan xoslanadi. Dissertatsiya natijalari asarni ilmiy tekshirish metodlariga xos ana shunday kuzatishlarni yuzaga olib chiqayotganiga ko'ra ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlari o'zbek adabiyoti, adabiyoti nazariyasi, jadidshunoslik va adabiy jarayon bo'yicha tadqiqotlar uchun material bera olishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarining "Adabiyotshunoslikka kirish", "Adabiyot nazariyasi", "O'zbek adabiyoti tarixi", "Jadid adabiyoti tarixi", "Adabiyotshunoslik metodologiyasi" kabi fanlardan ma'ruzalar o'qishda va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratishda qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi. Ijodkor shaxsi fenomenini o'rganish yo'lidagi tadqiqotchilar uchun tayyor manba vazifasini o'taydi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Begali Qosimov hayot yo'li va ijodini ilmiy biografik o'rganish muammosi tadqiqi bo'yicha olingan natijalar asosida:

biografik metodning maydonga kelishi, shakllanish omillari, adabiyotshunoslik tarixida tutgan o'rni, ijodkor va ilmiy asar munosabatini tipologik yoritishdagi o'ziga xosligi, biografik obyekt tarjimayi holini ijtimoiy, maishiy, psixobiografik sathlarda analiz va sintez qilishdagi amaliy natijalari, jahon adabiyotshunosligida biografik metod va uning ilmiy-nazariy asoslari, spetsifik xususiyatlari ochib berilgani, Begali Qosimovning umumlashtirishdagi tahlil va talqin prinsiplarining o'ziga xosliklarini ko'rsatib berishiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetidagi 2021-2023-yillarda bajarilgan F3-201912258 raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 10-iyundagi 04/1-1471-son ma'lumotnoma). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi Begali Qosimov ilmiy ijodining individual xususiyatlarini belgilashda, olimning jadidshunoslikka qo'shgan hissasi tahliliga oid yangi materiallar bilan boyitilgan;

professor Begali Qosimov adabiyot tarixi, jadidshunoslik, adabiy tanqid, milliy mustaqillik mafkurasiga doir tadqiqotlarining ilmiy tavsifi amalga oshirilgani, o'zbek adabiyotshunosligida biografik metod va uning ilmiy-nazariy asoslari, spetsifik xususiyati ochib berilganligi, Begali Qosimov hayot yo'li va ijodini ilmiy-biografik o'rganishda, olim ilmiy ijodining individual o'ziga xosligini belgilashda, olimning pedagogik ishlari ko'lamini belgilashga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2022-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 4- senyabrdagi 04/1-2280-sonli ma'lumotnoma). Natijada loyiha mazmuni adabiyotshunos hayoti va ijodiga doir ilmiy materiallar bilan boyitilgan.

professor Begali Qosimovning shaxsiy arxivi negizida olim biografiyasi va ilmiy merosini psixobiografik talqin etish uchun asos bo'ladigan arab, lotin va kirill alifbolarida yozilgan yigirmadan ortiq kundaliklari, maktublari, rasmiy yozishmalari ilk bor adabiyotshunos fenomenini yoritish uchun istifoda etilgan ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlangan "Bedorlik" va "Adabiy jarayon" nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda (O'zbekiston teleradiokanali DMning 2023-2024-yillar) foydalanilgan. (04.36-733-sonli ma'lumotnoma). Natijada dasturlar mamlakatimiz yoshlarini o'zbek va jahon adabiyotshunosligidagi ijodkor olim hayot yo'li va ijodini ilmiy biografik o'rganishga doir materiallar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 8 ta: 6 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish e'lon qilingan, Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, shundan, 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar va tadqiqotning tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Adabiyotshunoslikda ilmiy-biografik yondashuv va uning nazariy tamoyillari**" deb nomlanib, 1.1 paragrafda "*Adabiyotshunos faoliyatini o'rganishda biografik metodning o'rni*" masalasi

tadqiq qilingan. Biografik metod ta'rifi hamda unga xos bo'lgan xususiyatlar, adabiyotshunoslikda biografik metodning o'rni, ma'lum ijodkor faoliyatini o'rganishda mazkur metod amal qiluvchi mezonlar haqida nazariy ma'lumotlar berilgan. Jahon va o'zbek adabiyotshunosligidagi nazariy qarashlar yoritilgan.

XIX asrning o'rtalaridan e'tiboran adabiyotshunoslikda insonparvarlik g'oyalari ilmiy prinsip darajasiga ko'tarildi. Badiiy asarni "san'atga zid qoida va janrlar nuqtayi nazaridan tekshirmaslik" g'oyasi yirik fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo tomonidan ilgari surilgan bo'lsa, shu davr G'arb falsafasi "har qanday ijod namunasi muallif shaxsiyati bilan bir butunlikda o'rganilishi lozim" degan tamoyilni o'rta tashladi. Sharl Sent-Buyov, Andre Morua faoliyati amalda ayni tamoyilning tadqiqot metodiga aylanishini ta'minladi.

Biografik metodning o'zagi bo'lmish "biografiya" (lot.) so'zi – bios-hayot, grapho-yozmoq ma'nolarini anglatadi, kengroq ma'nosida esa mo'tabar, tabarruk, "bitikdagi taqdir", "umr tarixi", "hayot"<sup>9</sup>, kabi ma'nolarni ham anglatadi.

Adabiyotshunosning faoliyati va ijodini ilmiy-biografik tekshirishning asosini biografik metod tashkil qiladi. Biografik metod adabiyotshunoslikning ilmiy metodlaridan biri sifatida asar va tadqiqotga ijodkor shaxsi orqali kirib borishiga ko'ra xoslanadi. Biografik metod mustaqil, nisbatan yangi va samarali tadqiqot usulidir. Tadqiqotchi-olim har qanday ijod namunasi uning muallifiga bog'lab tekshirganda, matn ortida turgan subyektni yaxshiroq his qiladi, ilmiy, badiiy tahlilda yetarli natijaga erishadi. O'ziga xos yaxlit tizimga ega bo'lgan bu metodni "...ijodning har qanday turi (amaliy, nazariy) va har qanday shakli (fan-texnika, san'at, siyosat, madaniyat)ga nisbatan qo'llash mumkin"<sup>10</sup>.

Biografik metodni faqatgina tarjimayi hol, ya'ni ijodkorning hayotini o'rganishdan iborat deb tushunmaslik lozim. "Ushbu metod ijodkor biografiyasidan faqat axborot manbai sifatida foydalanmaydi, balki bunda ijodkor biografiyasi bir butun tizim o'laroq, ijod mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bu shunday tizimki, ichki strukturasi jihatidan ko'plab mukammal tizimchalarni o'zida mujassam etadi. Shuningdek, ijodkor hayoti va faoliyati atroflicha qamrab olinadi"<sup>11</sup>. Biografik metodda har qanday ijod namunasi yaratgan muallif (shoir, yozuvchi, dramaturg, olim), eng avvalo, inson sifatida o'rganilishiga alohida ahamiyat beriladi. Sababi, ijod mahsulida muallifning hayoti, faoliyati bilan bog'liq nuqtalar u yoki bu ko'rinishda o'z aksini topadi. Badiiy asarni yaratayotgan shaxs o'z o'y-kechinmalari, dunyoqarashi, voqealar, lahzalarni ijodiga olib o'tadi. Asarda ular yangilangan, o'zgargan ko'rinishda gavdalanadi. Badiiy asarni ilmiy metodlar asosida tekshirayotgan adabiyotshunos uni yaratgan ijodkor hayoti, faoliyati bilan bog'lab tekshirganda, asar manbalarini topib, mazmunga yanada chuqurroq kirib boradi va kitobxonga asar haqiqatini yuzaga olib chiqadi. Shu ma'noda biografik metod tekshirish obyekti va predmeti bo'lgan "asar+muallif"<sup>12</sup> birligida keng imkoniyatlarga ega. Xususan, ijodkorning ijod laboratoriyasi

<sup>9</sup>Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 21.

<sup>10</sup>Жўракулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 14.

<sup>11</sup>Ко'rsatilgan manba. – В. 12.

<sup>12</sup>Адизова О. Адабиётшunosликда Азиз Қаюмов тадқиқотларида биографик методнинг ўрни. Филол. фан. б. фалс. док... (PhD) дисс. – Қарши, 2018. – Б. 13.

atroflicha tahlil qilinadi. Asar va ijod jarayoni adib yoki olimning shaxsiyati, ruhiy-ma'naviy holatiga bog'lab o'rganiladi. "Ijodkor hayotidagi ma'lum bir voqea-hodisalar uning yozgan asarlarida qaysidir tarzda o'z aksini topgani biografik metod vositasida dalillanadi"<sup>13</sup>.

Mazkur metod yordamida adabiyotshunos faoliyati o'rganilar ekan, u quyidagi biografik omillarga tayanadi:

1. Ijodkor biografiyasining genetik, maishiy-familiy (oila o'tmishi, buguni va kelajagiga doir, psixofizik (ruhiy va biologik) omillar.

2. Biografik obyektning ijtimoiy-madaniy faoliyati tizimli tahlili.

3. Biografik obyekt ta'lim olgan muhit, o'qib o'zlashtirgan ilmiy-adabiy manbalar potentsiali.

4. Biografik obyekt asarlari, ularda aks ilmiy nuqtayi nazar, dunyoqarash va falsafiy tamoyillar.

Biografik metodda genetik faktor har doim yetakchi hisoblanadi. Zero, ijodkorning o'ziga xos jihatlari tadqiq etilar ekan, unda gen va insonning biologik xislatlari bo'lishi tabiiy. "Binobarin, adabiyot tarixida ijod jarayoniga ota-bobosi, tog'asi, umuman, biror yaqin qarindoshi ta'siri ostida, aniqrog'i, ular bilan qondoshligi sababli kelganlar ham ko'pchilikni tashkil etadi"<sup>14</sup>. Dunyo adabiyotiga ham bunday ta'sir, oilaviy muhit natijasida yuzaga kelgan iqtidorlar anchagina. "Bu o'rinda Navoiyning shoir tog'alaridan, Maxtumlulning bobosi va otasidan, Pushkinning shoirtabiat amakisidan, Ogahiyning amakisi Munisdan va hokazo ta'sirlanganlini eslash kifoya"<sup>15</sup>.

B.Qosimov ham adabiyot, ilm-fan maydoniga o'z-o'zidan kirib qolgan emas. Xususan, otasi haqida "She'riyatni, so'zni, so'z ma'nosini chaqishni yaxshi ko'rardilar. She'r mashq qilardilar", deb eslaydi xotiralarda. Shuningdek, adabiyotshunos U.Jo'raqulov B.Qosimovning ukasi Shomurod Qosimovning xotiralariga tayanib, Abulqosim Murodov mumtoz adabiyot qonuniyatlaridan yaxshigina xabardor ekanligini ta'kidlaydilar va yozgan g'azallaridan namuna keltiradilar (Bu g'azallarni B.Qosimov yangi imloda ko'chirib ukalariga tarqatganlar).

"Bizda o'qishga, yozishga, umuman, so'zga mehr uyg'onishida otamning ham, onamning ham xizmatlari katta. Otam shoirlikdan tashqari (shoirliklari badihago'ylik bo'lgan), topqirlik bilan aytiladigan so'zlar, baytlarga mohir bo'lgan. Undan tashqari, sozni yaxshi ko'rardilar. U kishi dutor chalganlarida tinglagan odam yog'day erib o'tirardi. Uyimizda keyingi paytlargacha otamning eski dutorlari saqlanib kelardi. Shu dutorni har ko'rganimda otamning uni qo'llariga olib, sekin, osoyishta chala boshlashlari, undan keyin katta bir ilhom, jazava bilan qandaydir bir kuylarni ijro etishlari ko'z o'ngimga keladi. Otam har qaysimizga yog'ochdan do'mbira yasab bergandilar. Xullas, bizda so'zga, sozga, yaxshilikka mehr uyg'otgan otam bilan onam edilar. Onam ham bitmas-tuganmas

<sup>13</sup>Ko'rsatilgan manba. – B. 13.

<sup>14</sup>Адизова О. Адабиётшуносликда Азиз Қаюмов тадқиқотларида биографик методнинг ўрни. Филол. фан. б. фалс. док... (PhD) дисс. – Қарши, 2018. – Б. 21.

<sup>15</sup>Ko'rsatilgan manba. – B. 21.

xazina edilar. Ertaklarni, qo‘shiqnlarni yaxshi bilardilar. U kishining allalari hech qachon esimdan chiqmaydi”<sup>16</sup>, – deb yozadi olim tarjimayi holida.

Har qanday ijodkor o‘z faniga tegishli nazariy bilimlarni puxta egallagan bo‘lishi lozim. Bilim, harakat uning adabiyotshunoslikdagi o‘rnini belgilab beradi. Biografik metodda ayni shu jihat yaxlit bir tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy asarning deyarli barcha qismi – so‘z, jumla, mavzu, g‘oya, mazmunda muallif shaxsiyatini bildirib tursa, ilmiy ijodda adabiyotshunosning shaxsi u yaratgan tadqiqotlardagi tekshirish usuli, tanlagan ilmiy muammosi, uslubi, fikr, xulosada o‘z ifodasini topadi.

Begali Qosimov haqidagi xotiralarning aksariyatida ustozning jussasi kichik bo‘lsa-da, unda jadidlarga xos g‘ayrat jo‘sh urib turgani eslanadi. Balki, ustozning ijod uslubiga xos bo‘lgan muhim jihat ham ilmiy tadqiqotlarida so‘zni tejash, kam so‘zda ko‘p ma‘noni bera olish, pishiq, ilmiy asoslangan jumla qurish mana shu tabiiy xususiyat natijasidir. Olim o‘z fanining haqiqiy bilimdoni, jadidlar singari jonkuyari edi. Biografik yondashuv amal qiladigan bu omil B.Qosimov ilmiy ijodida eng muhimi hisoblanadi. Umuman olganda, B.Qosimov nafaqat jadid adabiyoti, balki mumtoz adabiyot tarixi, adabiy jarayon kabi sohalarning yetuk bilimdoni edi. Bu xususiyat olim yaratgan ilmiy tadqiqotlarning barchasida o‘z aksini topgan.

1.2. paragraf “*O‘zbek adabiyotshunoslari ijodini ilmiy-biografik o‘rganish tarixidan*” mavzusiga bag‘ishlangan. O‘zbek adabiyotshunosligida ham mazkur tadqiqot metodi o‘z tarixi va tadqiqot prinsiplariga ega.

G‘arbda “biografik metod” tarzida nomlangan mazkur ilmiy tadqiqot usuliga xos tamoyillar, xususan, Alisher Navoiy tazkiralari va “holot”larida Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”sida, mumtoz shoirlarimiz “hasbi hollari” hamda jadid adabiyotshunoslari tadqiqotlarida yaqqol kuzatiladi. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotshunosligida ayni tamoyillar shakllanish bosqichiga kirdi, biroq ayrim kamchiliklar ham kuzatiladi. Adabiyotshunos U.Jo‘raqulov bu haqida “...Ammo, shunga qaramasdan, biografik metodning markaziy konsepsiyalari, ilmiy-nazariy prinsiplari, metod sifatidagi o‘ziga xos jihatlari, boshqa tadqiq metodlari, fan sohalari bilan aloqadorligi masalalarini umumlashtiruvchi metodologik tadqiqotlar mavjud emas”<sup>17</sup>, – degan fikrni bildirsa, adabiyotshunos B.Karimov o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida jiddiy e‘tibor berilmaganini ta’kidlaydi<sup>18</sup>.

2000-yilga qadar biografik metodning ma‘lum tamoyillari asosida Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud, Otajon Hoshim, Abdurahmon Sa‘diy ilmiy-adabiy merosiga doir tadqiqotlar yaratilgan. Shuningdek, Izzat Sulton (N.Rahimjonov), O‘tkir Hoshimov (A.Rasulov), Aziz Qayumov (O.Adizova), Bahodir Sarimsoqov (Z.Rahmonova)lar ijodi turli aspektlarda o‘rganilgan.

Ayni tadqiqotlarda:

1. *Ijodkorlarning tarjimayi holini yaratish va uni ilmiy muamolaga olib kirish masalasi.* Biografik metodda “asar+muallif” birligi tadqiq qilinar ekan, avvalo, tarjimayi holini bilish muhim hisoblanadi. Zero, ijodkor biografiyasi uning

<sup>16</sup>Qosimov B. Tanlangan asarlar. 3-jild. – Toshkent: Faqur Fulom, 2022. – B. 550.

<sup>17</sup>Ju‘raqulov U. Xududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 13.

<sup>18</sup>Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: Faqur Fulom, 2016. – B. 168.

asarlari haqidagi dastlabki kalit vazifasini o'taydi. Shu sabab olim-ijodkor tarjimayi holini yaratish va uni to'ldirish biografik metodda muhim jarayonlardan biridir. Adabiyotshunosning o'rganilmagan, aniqlanmagan tarjimayi holiga oid ma'lumotlarni ilk bora ilmga olib kirish va tartiblash, ayrim o'rinlarini to'ldirish, tavsiflash masalasi zarur vazifa hisoblanadi. Zeroki, har qanday tarjimayi hol o'z shaxsining dunyoqarashi va individualligidan xabar beradi.

2. *Adiblar yoki adabiyotshunoslarning adabiyot va san'at to'g'risidagi mulohazalarini tizimlashtirish.* Adabiyot va san'at haqida o'tgan asrning 10-yillaridan boshlab turli fikr-mulohazalar bildirila boshlandi. Fikrlar xilma-xilligi bu davr ilmiy-adabiy muhitiga xos hisoblanadi. Xususan, adabiyotshunoslikning tamal toshini qo'ygan Abdurauf Fitrat haqida professor U.Jo'raqulov "adabiyotning mohiyati, vazifasi to'g'risidagi qarashlari 10-yillarning oxiridayoq tugal shaklga kirgan edi"<sup>19</sup>, degan fikrni bildiradi. Buni isbot etishda olim Fitratning "Adabiyot qoidalari"dagi "adabiyot" va "she'r" haqidagi qarashlarini misol qilib keltiradi: "... adabiyot fikr-tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar vositasi bilan tasvir qilib, boshqalarda ham shu to'lqunni yaratmoqdir"<sup>20</sup>. "She'rda kishilarning qonini qaynatg'uvchi, singirlarini o'ynatg'uvchi, miyasini titratg'uvchi, sezgisini qo'zg'atg'uvchi, bir ma'noviy kuch bor"<sup>21</sup>. Olim so'zlarning asl mohiyatini ochish orqali Fitratning adabiyot haqidagi yaxlit xulosasini bildiradi: "Ya'ni birinchi tezisda she'rning ichki tuzilishi, uni tashkil etuvchi ma'naviy-ruhiy asoslar ko'rsatilsa, ikkinchi tezisda, shular bilan birgalikda, so'z san'atining umumestetik vazifasi va ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Buning umumiy ma'nosini har ikkala fikr sintezidan kelib chiqqan mantiqiy xulosa, deb aytish mumkin. Yana buning tarkibida ijod mohiyatini belgilovchi ratsional mag'iz ham bor"<sup>22</sup>, tarzida ifodalaydi. Fitrat yaratilayotgan asarlarda, xususan, she'r va adabiyotda "estetik ta'sir", "estetik zavq" muhim ekanligini uqtiradi.

Davr adabiy muhitida ijod qilgan adabiyotshunoslarning san'at va adabiyot haqidagi mulohazalari ham o'ziga xos bo'lgan. Jumladan, I.Yoqubov Otajon Hoshimning adabiyot haqidagi qarashlariga to'xtalar ekan, shunday deydi: "Olim adabiyotni nafis san'at deb tushunadi, mumtoz adabiyotimizning badiiyatiga alohida mehr bilan qaraydi"<sup>23</sup>. Shuningdek, "V. Mahmud adabiy tanqidiy maqolalarida g'oya va mazmundan ko'ra ko'proq san'atning nafosatiga, ya'ni badiiyati, shakli, uslubi va tiliga e'tiborni qaratdi"<sup>24</sup>, – deya urg'ulaydi.

3. *Adabiy meros va mumtoz adabiyotga munosabat masalasi.* XX asr boshida yashab ijod etgan adabiyotshunos olimlarning mumtoz adabiyotga munosabati bir qancha jihatlarda ko'rinadi. Xususan, "Fitratning mumtoz merosga muayyan munosabati, birinchidan, aruzga turkona yondashish prinsipi bilan

<sup>19</sup>Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 28.

<sup>20</sup>Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 21.

<sup>21</sup>Ко'rsatilgan manba. – Б. 20.

<sup>22</sup>Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 28.

<sup>23</sup>Ёқубов И. Отажон Ҳошимнинг адабий-танқидий фаолияти. Филол фан. ном. дисс.... автореф. – Тошкент, 1993. – Б. 12.

<sup>24</sup>Каримов Б. Вадуд Махмуднинг 20 йиллар адабий танқидчиликдаги ўрни. Филол фан. ном. дисс... автореф. – Тошкент, 1995. – Б. 9.

bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, zamon murakkabliklari bilan izohlanadigan ba‘zi yon berishlari ham, uning mumtoz merosga bo‘lgan muhabbatiga, unga ijobiy qarashiga soya sola olmagan”<sup>25</sup>. Umuman, Fitrat imkon qadar adabiy merosni asrash va ularni tanitish yo‘lidan boradi. Uning tadqiqotlarida ko‘plab mumtoz adabiyot vakillari tadqiqot obyektiga tortilgan. Jumladan, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Amir Umarxon haqidagi ilmiy maqolalar o‘z davrida muhim bosqichni boshlab bergan edi. Vadud Mahmud ham adabiy meros masalasiga katta hurmat bilan qaragan. Behbudiyning ardoqli o‘g‘li sifatida e’tirof etilgan olim mumtoz adabiyotimizning asosini “Islom dini va tassavuf falsafasidan iborat ekanligini ko‘tarib chiqqan edi”<sup>26</sup>. Navoiy haqidagi fikrlari esa o‘sha davr uchun katta bir voqelik va jasorat edi. Vadud Mahmud Navoiyni “buyuk shoir”, “buyuk dohiy”<sup>27</sup> deb ataydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Begali Qosimov hayot yo‘li va ilmiy merosining manbalari”** deb nomlangan bo‘lib, 2.1. paragrafda *“Begali Qosimov individual ijodkor, olim sifatida (Kundaliklar misolida)”* masalasi tadqiq qilingan. B. Qosimov ilmiy ijodi va olim shaxsiyatiga xos bo‘lgan individual xususiyatlar tahlilga tortilgan.

B. Qosimovdagi individual yondashuvning shakllanishidagi asosiy omillar quyidagilar:

a) subyektiv omillar:

– olimning shajarasi (ota-bobolari, ona avlodlari) va uning psixogeniologik (ruhiy-ma’naviy xususiyatlari) omillari, taqdir yo‘li;

b) obyektiv omillar:

– olim voyaga yetgan oilaviy muhit (u bolaligidayoq xonadonida otasi tomonidan sozga va so‘zga mehr qo‘yishi, otasining o‘zbek ziyolisiga xos tabiati, o‘g‘lining o‘qishiga e’tibor qaratgani, ustozlari, poytaxt madaniy-ilmiy muhitiga kirib kelishi);

– u shakllangan ijtimoiy, ilmiy-ma’naviy muhit (B.Qosimov ilmiy faoliyatining jadid adabiyotining bu adabiyotning ilmiy muammolarini ishlab chiqish zarurati tug‘ilgan bir paytda boshlagani, davrning ulkan olimlaridan ta’lim olgani va ayni muhitda shakllanib, faoliyat yuritgani);

Olim ilmiy ijodiga xos individuallik, bizningcha, uning shaxsiyatida yaqqol ko‘rinib turadigan obyektivlik, adolatlik, qat’iylik, rostgo‘ylik, qisqalik, samimiylilik kabi xarakter xususiyatlaridan kelib chiqadi. B. Qosimovning ilmiy ijodidagi individuallik yana quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) *ilmiy muammoni aniq qo‘yishi va o‘z obyektiga nisbatan ilmiy-estetik munosabatida;*

b) *mavjud ilmiy muammoga yondashuv usuli va tadqiqot tamoyillarida;*

c) *olim ilmiy uslubi va tahlil usulining o‘ziga xosligi, qo‘llagan ilmiy tushuncha va terminlarining milliyligida.*

<sup>25</sup>Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 28.

<sup>26</sup>Каримов Б. Вадуд Махмуднинг 20 йиллар адабий танқидчиликдаги ўрни. Филол фан. ном. дисс... автореф –Тошкент, 1995. – Б. 15.

<sup>27</sup>Ко‘rsatilgan manba. – В. 18.

Begali Qosimov ijodiy individualligi uchun asos bo'lgan manbalar faqat yuqorida qayd etilgan jihatlar bilan belgilanmaydi. Olim bir umr o'z faoliyati, ruhiy-manaviy holatlarini ifodalovchi kundaliklar yuritgan. Qolaversa, Begali Qosimovning turmush o'rtog'i Matluba Isoqova tomonidan yozilgan (nashrga tayyorlangan, ammo hali chop etilmagan) xotira kitoblarida keltirilgan voqealar, olim ruhiy olamini tasvirlovchi xatlar, maishiy turmush faktlari, ham muammo mohiyatini ochishda qo'l keladi.

B.Qosimov "Kundaliklar"i, asosan, uch turga bo'linadi:

1. Olim ilmiy faoliyatining ma'lum davrga doir, xos xususiyatlarini aks ettiruvchi "Kundaliklar".

2. Begali Qosimovning ruhiy, ma'naviy, maishiy hayoti va o'ta shaxsiy holatlari aks etgan "Kundaliklar".

3. Matluba Isoqova kitobidagi xotira, maktublar va turli dalillar talqini.

B.Qosimovning birinchi turdagi kundaliklari tizimli tartibga asoslanmagan. Olim, asosan, eng qiziqarli ma'lumotlarni, manbalardagi qimmatli fikrlarni yozib borgan. Shu ma'noda ularning hajmi katta, lekin bir daftar doirasida emas, turli xil tarzda qayd etib borilgan. Bu xotiralardagi asosiy e'tibor, sof ilmiylikka qaratilgan bo'lib, adabiy figuralar, xususan, Ajziy, Mirmuhsin Shermuhamedov va Abdulla Avloniy haqidagi ma'lumotlar ko'p uchraydi. Daftarlarda olim o'sha davr matbuotida e'lon qilingan va o'zi uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Masalan, olim Fitratning Mirmuhsinga bag'ishlangan she'ri "Ovunchoq"ni eski o'zbek yozuvida qayd etib ketgan. Ma'lumotlarda mazkur she'r Mirmuhsinga bag'ishlangani aytiladi. Begali Qosimovning xotiralaridan ayon bo'ladiki, olim bu she'rni o'sha davr matbuotidan olib qayd qilgan, sababi, she'r oxirida №71 raqami ko'ramiz. Olimning birinchi manbalarga munosabati o'ziga xosligini aytgan holda, bu she'r ham katta ehtimol bilan o'sha davr matbuotidan ko'chirib olingan deyish mumkin.

B. Qosimovning yana bir turdagi kundaliklari ham borki, bular eski o'zbek yozuvida yozilib, tartibli ravishda qayd etib o'tilgan xotiralar hisoblanadi. Ilmiy ijoddan farqli ravishda olim kundaliklarida xotiralarini yozar ekan, o'z ruhiy olamiga yaqin bir suhbatdosh izlagan. Ikkinchi turdagi "Kundaliklar" to'liq arab alifbosida bitilgan. "Kundaliklar"ning ayni yozuvda olib borilganligidan ham anglash mumkinki, olim ularni maxfiy saqlashni istagan. Bu esa olim tabiati va ijodiy prinsiplarining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Olim farzandlarining xotirlashicha, B. Qosimovning ayoli Matluba Isoqova eski o'zbek yozuvini o'qishni o'rganib, yoshi ancha ulg'aygandagina bu kundaliklarni o'qigan.

Bobning 2.2. paragrafi "*Begali Qosimov – jadidshunos*" masalasi tadqiqiga bag'ishlangan. Olimning jadidshunoslikka bag'ishlangan tadqiqotlari ko'lami, yo'nalishlari, ilmiy ahamiyati tahliliga e'tibor qaratilgan.

B.Qosimov adabiyotshunoslikning barcha yo'nalishlari bo'yicha izlanishlar olib borgan serqirra olimdir. Olim ko'p yillik faoliyati davomida manbashunos, mumtoz va zamonaviy adabiyot, adabiy jarayon muammolari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan bo'lsa-da, jadid adabiyoti va jadidchilik harakatining o'rganilishiga katta hissa qo'shgan hamda dunyoda e'tirof etilgan olimlardan biri edi.

Olimning “Mirmuhsin Shermuhamedov”, “Izlay-izlay topganim”, “Isyonkor qalb”, “Salom kelajak”, “Ma’rifat darg’alari”, “Salom kelajak” “Ismoilbek Gasprali”, “Maslakdoshlar”, “Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik”, “Milliy uyg’onish”, “Uyg’ongan millat ma’rifati” kabi tadqiqotlari fanda muhim qimmatga ega tadqiqotlardir.

Olimning jadidchilik va jadid adabiyotini o’rganishga bo’lgan ishtiyoqi talabalik yillaridan boshlab shakllana boshladi. B. Qosimovning jadidlarga bo’lgan muhabbati uning butun qalbi, ruhiyatini bolalik kezlaridanoq egallagan edi. Chunonchi, olim haqida o’qiymiz: “Aslida, Begali Qosimov o’zining butun vujudi, fikriy olami, salohiyati, e’tiqodi, intilishlari, talabchanligi, rostgo’yligi, va’daga vafo qilishi, millatparvarligi bilan chindan ham jadid edi! Aytish mumkinki, u tabiatan jadid bo’lib tug’ilgan edi, universitet va hayot saboqlari uni yana ham chiniqtirdi, toblantirdi”<sup>28</sup>. Olim o’zining tarjimai holi va boshqa bir qancha ilmiy ishlarida jadidchilik va jadid adabiyotiga bo’lgan so’nmas muhabbatini shunday xotirlaydi: “Ayniqsa, kommunistik diktatura sharoitiga qaramay, jadidchilikka mehr uyg’otgan professor G’ulom Karimov nomini alohida ehtirom bilan tilga olaman. Sababi, taqdirni qarangki, aynan talabalik yillarida “Siddiqiyning adabiy merosi”<sup>29</sup> mavzusida diplom ishi qilib berilishi va o’zining tabiatiga xos bo’lgan jadidona xarakterlarning samarasi sifatida butun ilmiy faoliyati shu sohaga bog’landi.

Olim jadidchilik harakatini kompleks tadqiq qilar ekan, quyidagi jihatlariga e’tibor qaratdi:

1. *Jadid istilohi hamda harakatning xarakterini belgiladi.* Jadidchilik ijtimoiy harakat ekan, uning negizida jadid so’zi turadi. Olim bu so’zning ma’nosi “yangi” bo’lsa-da, u faqatgina “yangi” yoki “yangilik tarafdori” emas, aslida, jadidning negizida “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolar bildirishini ta’kidlab o’tadi. O’zini “jadid” hisoblagan har bir insondan shu uch jihatni qidiradi va o’zi tadqiq etgan jadid-ijodkorlarda shu jihatlar mujassam bo’lganiga guvoh bo’ladi. Jadid istilohining kirib kelishi Ismoilbek va uning yangi maktabi bilan bog’liqligini ta’kidlaydi.

“... 1884 sanasi Boqchasaroyda bir maktab [n]i usuli jadid [g] a qo’ymish edim”<sup>30</sup>. Istilohning ma’nosi faqat maktab bilan cheklanmagani yaxshi ma’lum.

2. *Uning adabiygina emas, ijtimoiy harakat ekanligini ilmiy isbotladi.*

Ma’lumki, jadidchilik Turkistonda XIX asr oxirida maydonga keldi. XX asrning boshlarida shakllanib yuqori bosqichga ko’tarildi. Ayni paytda uningdek xilma-xil baho va talqinga sazovor bo’lgan ikkinchi bir hodisani topish qiyin. Ammo o’zining paydo bo’lish, shakllanish va taraqqiyot bosqichida unga turli xil munosabatda bo’lgan kishilar ham oz emas edi. Jumladan, Akmal Ikromov jadidchilik haqida “Jadidizmning burjua ideologiyasi savdo burjuaziyasi ideologiyasidir. Uning bizga hech bir daxli yo’q, negaki u oktyabrning bir

<sup>28</sup>Сўнги жадид қиссаси (Бегали Қосимов замондошлар хотирасида). Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар Узок Жўракулов, Адиба Қосимова, Шохрух Қосимов. – Тошкент: Турон-иқбол, 2012. – Б. 184.

<sup>29</sup>Қосимов Б. Маслакдослар. – Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. – Тошкент: Шарқ, 1994. – Б. 40.

<sup>30</sup>Қосимов Б. Миллий уйғониш жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 5.

tomonida, biz esa ikkinchi tomonida turamiz”<sup>31</sup>, – deb ta’kidlaydi. Yuqorida aytilganidek, harakat haqida xilma-xil baho va qarashlar mustaqillik yillarigacha turlicha bo‘lib qolaverdi. B. Qosimov tadqiqotchiligining o‘ziga xos xususiyatidan biri – bu olimning “Biron bir voqelik va hodisa haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish uchun gapni sal oldinroqdan boshlash kerak”, – degan so‘zlaridir. Olimning har bir ishida ilmiy tadqiqotga yo‘naltirilgan shu kabi jummalarni o‘qish mumkin. B. Qosimov jadidchilik haqidagi tasavvur shakllanishi uchun gapni oldinroqdan boshlab, harakatning o‘lkamizdagi ishtirokchilarini kuzatish orqali munosabat bildiradi.

Shu o‘rinda olimning Abdulla Avloniy “tarjimayi holi”dagi “shul zamonlar yerli xalqlar orasida eskilik-yangilik janjali boshlandi. Gazit o‘quvchilarni mullalar jadidchi nomi bilan atar edilar”<sup>32</sup>, – degan fikrlarini keltirib o‘tmoq joizdir. Olim fikrlarini Turkiston viloyati gazetasi va Munavvar Qorining so‘zlari bilan davom ettirib, isbot etdi. B. Qosimovning jadidchilikka bergan ta’rifi asosli va xolis ta’riflardan biri hisoblanadi. Chunki, olim jadidchilik faqatgina ma’rifatparvarlik emas, balki negizida mustaqillik bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy masalalarni qamrab olgan ijtimoiy harakat deb ta’kidlaydi va quyidagicha ta’rif beradi: “Jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Yaqingacha ham u faqat ma’rifatchilik harakati deb kelindi. Bu ataylab qilingan edi. Maqsad jadidchilikning doirasini toraytirish sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi egallashi mumkin emas edi, degan soxta tushunchaning asorati edi”<sup>33</sup>. Aslida ham, jadidchilik jamiyatning barcha qatlamlarini jalb qila oldi, uyg‘onish mafkurasi bo‘lib xizmat qildi.

3. *Harakatning o‘rganilishi.* B. Qosimov jadidshunos olim sifatida harakatning o‘rganilishini, ya’ni jadidshunoslik bosib o‘tgan yo‘lni quyidagi bosqichlarga bo‘lib tasnif etadi:

1) 1900-1925; 2) 1925-1938; 3) 1938-1956; 4) 1956-1985; 5) 1985-1991; 6) 1991 dan keyingi davr.

4. *Davr adabiyotining o‘rganilishiga doir.* Jadidchilikning ruhi va mazmunini o‘zida to‘liq namoyon etgan jadid adabiyoti milliy ong va sezim taraqqiyotida beqiyos rol o‘ynaydi. Ana shu adabiyotning eng yorqin voqeliklarini Begali Qosimov tadqiq etdi. Olim o‘z tadqiqotlarida Ismoil Gasprinskiy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Mirmuhsin Shermuhamedov-Fikriy, Siddiqiy Ajziy, Nozimaxonim kabilar hayot yo‘li va ijodini keng miqyosda kompleks holda tadqiq qildi.

**“Begali Qosimov tadqiqotchiligining ijtimoiy-estetik, ilmiy-nazariy xususiyatlari”** nomli uchinchi bobning 3.1 paragrafida *“Badiiy adabiyotning milliy estetik tamoyili asosida o‘rganilishi, davrlashtirish alohida siymolar tadqiqi”* masalasi tadqiq qilingan. Xususan, badiiy adabiyotning milliy estetik tamoyil asosida o‘rganilishi, adabiyot tarixini davrlashtirish masalasi hamda mazkur davrlashtirishga B. Qosimovning pozitsiyasi, olim tadqiqotlarida alohida siymolar tadqiqi tahlil qilingan.

<sup>31</sup>Миллий уйғониш ва ўзбек адабиёти масалалари. – Тошкент: Университет, 1993. – Б. 12.

<sup>32</sup>Қосимов Б. Миллий уйғониш жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 6.

<sup>33</sup>Қо‘rsatilgan manba. – Б. 6.

Davrlashtirish o'sha millat adabiyotining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini belgilamoq demakdir. Taraqqiyot bosqichlarini belgilamoq esa, xos jihatlarini aniqlamoqdir. Bular esa, o'z navbatida, uni o'rganish va o'rgatishning asosiy omillarini tashkil etadi. Har bir millat borki, o'z adabiyotining shakllanishida ma'lum bir bosqichni bosib o'tgan, xuddi shunday o'zbek adabiyoti ham uzoq tarixga ega. O'zbek adabiyotini davrlashtirish ayni adabiyotshunoslik fani shakllanishi bilan birga amalga oshirila boshlandi. XX asrning birinchi choragida Fitrat va undan keyin yashagan ko'plab olimlar davrlashtirish masalasiga munosabat bildirgan. Mustamlaka davlat o'laroq davrlashtirish jarayoni turkiy xalqlar adabiyoti, rus adabiyoti hamda ruslarning ijtimoiy hayotidagi voqeliklar bilan birga amalga oshirilgan.

Adabiyotshunos B. Qosimov xalqaro turkologiya kongressidagi nutqida yolg'iz o'zbek adabiyoti emas, balki sobiq sovet "saltanati" doirasidagi barcha milliy adabiyotlar uchun xos bo'lgan XX asr uchun quyidagi davrlashtirish masalasini o'rtaga tashlaydi:

1. Milliy uyg'onish davri adabiyoti (1900-1929-yillar).
2. Sotsialistik realizm adabiyoti (1930-1950-yillar).
3. Yangi Uyg'onish va mustaqillik uchun kurash davri adabiyoti (1960-1990-yillar).
4. Mustaqillik davri adabiyoti (1991-yildan keyin).

Ayni davrlashtirish mutlaqlikka da'vo qilmaydi. Ammo ta'kidlash kerakki, mazkur davrlashtirishda ma'lum davr adabiyotining xos belgilari o'z ifodasini topgan.

Olim 1992-yil Rahmon Qo'chqor bilan suhbatda 130 yillik tarixni, ya'ni mustamlaka davri adabiyotini quyidagicha davrlashtirgan. Bu 1865-1991-yillarni o'z ichiga oladi.

1. Ilk istilo davri adabiyoti (1865-1905-y).
2. Uyg'onish davri adabiyoti (1905-1929-y).
3. Qatag'onlar davri adabiyoti (1929-1956-y).
4. Turg'unlik davri adabiyoti (1956-1991-y).

Begali Qosimov badiiy adabiyotning milliy-estetik tamoyil asosida o'rganilishi borasida o'z pozitsiyasiga ega. Olim milliy estetik tamoyil asosida ilmiy xulosalar chiqarishda Vatan, millat va milliylik kabi tushunchalarni asosiy vosita sifatida tanlaydi va qolgan barcha narsalar millat va milliylik kabi tushunchalarga bog'lanadi. B. Qosimovning fikricha, har qanday adabiy hodisalar faqat millat va milliylik uchun xizmat qilmog'i kerak. Shu sabab B. Qosimov tadqiqotlarida millat, milliylik kabi fenomenlar chuqur tahlil qilingan, hamda tahlil qilingan, bu fenomenlarni barchaga birdek tushuntirishga harakat qilgan.

Olim millat so'zining tarixiy ildizlariga Qur'oni Karimga murojaat etish orqali fikr bildiradi. "...Va agar bunga to'xtash lozim bo'lsa, gapni "Qur'oni karim"dan boshlamoq kerak bo'ladi. Masalan, "Qur'oni karim"da bu so'z 11 surada 14 oyatda uchraydi. Jumladan, 2 (Baqara), 12 (Yusuf), 7 (Arof) suralarining har birida 2 martadan tilga olinadi. Va ularning yettitasida "Millati Ibrohima" shaklida keladi va ma'lum bo'lganidek, din, shariat, mazhab ma'nolarini anglatadi. Qolgan yetti o'rinda hazrati Ibrohim tilga olinmasa-da, ahli tavhid va ahli

mushrikni ajratish uchun ishlatiladiki, bu ham din-mazhab doirasida qolganini ko'rsatadi".<sup>34</sup> Begali Qosimov Qur'oni Karimdagi millat so'zini din, shariat, mazhab kabi ma'nolarda qo'llanganini ta'kidlab o'tadi. Alisher Navoiy asarlarida ham millat so'zi shu kabi ma'nolarda qo'llangan. Begali Qosimov bu masalani Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlari misolida tushuntirib beradi. "Alisher Navoiy ham "millat" atamasini deyarli shu doirada qo'llaydi. Chunonchi, Iso alayhis-salom osmondin ingay, dag'i dajjolni halok qilib, soyir milal ahlin xotimai nubuvva millatig'a dalolat qilg'ay"<sup>35</sup>. B. Qosimov Navoiyning har bir asarida millat so'zining qo'llanilishini chuqur tahlil etadi. Yana bir misol keltirish orqali fikrni davom ettirsak: "Yana: "... va'da budurkim, olam inqirozig'achakim, millat va shariat siroti mustaqim bo'lg'usidur, bu toifakim, valoyat va karomat ahlidurlar va xaloyiqg'a irshod va ahdo qilurlar, muborak zotlarning barakoti bu millat boshidan kam bo'lmag'ay"<sup>36</sup>. Olimning fikricha, Navoiy lirikasida qo'llangan millat so'zi, tasavvufiy mazmunga xizmat qiladi. Millat atamasining xalq va millat ma'nolarida qo'llanishi ham Navoiy asarlarida uchraydi. "Emdi bilkim buhurekim, ba'zining tarkibi-la hosil bo'lur, o'n to'qquzdur, ba'zi arabqa maxsus va ba'zi ajamqa maxsus va ba'zi mushtarak va turk shuurosiga millati iste'molidin hech qaysi bu vaqtqa degincha maxsus emas ermish..."<sup>37</sup>. Begali Qosimov Navoiy asarlaridagi millat tushunchasining ishlatilishi borasida quyidagi uchta xulosaga keladi.

1. "Millat" atamasi Navoiy ijodiy merosining barcha janrlarida uchraydi.

2. Shoir bu atamaga aksariyat an'anaviy ma'no yuklaydi, undan din – mazhab tushunchalarini anglatish uchun foydalanadi. Lekin ayni paytda, bir qator o'rinlarda, xususan, uning ilmiy ishlarida, zamondoshlari haqidagi xotiralarida ushbu istiloh, etnik tushuncha sifatida ishlatilgan.

3. "Millat" atamasiga bunday ma'no berish, ya'ni uning mazmunini bugungi tushuncha tomonga boshlash Navoiygacha bo'lgan adabiyotimiz namunalarida uchramaydi.

Olimning alohida siymolarga bag'ishlangan tadqiqotlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Turkiy yozma adabiyotning ilk vakillari ijodi o'rganilgan tadqiqotlar.

2. Mumtoz adabiyotimizning yirik vakillari ijodiga doir izlanishlar.

3. Jadid adabiyoti namoyondalari ijodi tadqiqi.

4. Zamonaviy o'zbek nasri, she'riyatining o'rganilishi.

B. Qosimov jadid adabiyoti namoyondalari ijodini quyidagi ishlarida o'rganadi.

1. Diplom va nomzodlik ishida.

2. Alohida asarlarida.

3. Matnshunoslik ishlarida.

4. Qomuslar, ilmiy to'plamlar, jurnal va gazetalarda bosilgan maqolalar.

Bu kabi ishlar 4 turga bo'linadi. Bular:

<sup>34</sup>Qosimov B. Uifonggan millat ma'rifati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. – B. 101.

<sup>35</sup>Qosimov B. Uifonggan millat ma'rifati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. – B. 102.

<sup>36</sup>Ko'rsatilgan manba. – B.102.

<sup>37</sup>Ko'rsatilgan manba. – B.103.

1. Qomus maqolalari.
2. Ilmiy to'plamdagi maqolalar.
3. Jurnal maqolalari.

4. Gazeta maqolalari va shu kabilarda e'lon qilingan har bir ishida olim alohida siymolar hayot yo'li, ijodi va faoliyati haqida batafsil ma'lumotlarni berib o'tadi.

Ushbu bobning 3.2. paragrafda "*Qosimovcha tahlil, talqin va umumlashtirish prinsiplari*" masalasi tadqiq qilingan. Olimning tasniflash, umumlashtirish, tahlil va talqin prinsiplaridagi o'ziga xos xususiyatlar tahlilga tortilgan.

Begali Qosimov tadqiqotlarida, asosiy tahlil usullari sifatida *sotsiologik, biografik, qiyosiy-tarixiy* kabi tahlil usullarini belgilash o'rinli. Olim mana shu tahlil usullari asosida kompleks tadqiqotlar yaratdi. Qolaversa, tarixiylik prinsipi olim tadqiqotlarining mohiyatida yotuvchi ustuvor tamoyil hisoblanadi.

Sotsiologik tahlil usulining eng asosiy xususiyatlaridan biri – "Bu metod negizida badiiy adabiyotga ijtimoiy hodisa sifatida qarash yetakchilik qilishi, adabiyotni bu metod vositasida tadqiq etishda, asosan, jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarni, madaniy muhit, adabiy-tarixiy shart-sharoitni inobatga olish hollari muhim sanaladi"<sup>38</sup>. Sotsiologik tahlilning olim tadqiqotlari uchun muhim ahamiyat kasb etishi uning jadidshunoslik faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi. Fikrning isboti sifatida quyidagi misollarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq.

Xususan, olimning To'lagan Xo'jamiyrov Tavallo haqidagi tadqiqotlarida ijtimoiy hodisani yetakchi unsurlardan biri sifatida qaraydi. B.Qosimov yozadi: "Tavallo Vatan mavzuyiga alohida e'tibor beradi. She'rlaridan biri "Suyukli Vatan haqinda" deb nomlanadi"<sup>39</sup>. Tavallo Vatan va millat tushunchalarini muqaddas bilgan, or-nomusli shoir bo'lganligini olim yaxshi his qiladi. Tavallo she'rlarining mavzusi vatan va uning taqdiri, shu vatanda yashovchilarning qismati ekanligini aytib o'tadi. Tavallo nafaqat, millat taqdiri bilan, shuningdek, butun musulmon dunyosi, xususan, turkiy xalqlar qismatiga ham befarq emas edi. Uning bir she'rida shunday misralarni o'qiymiz. She'r "Qars mamlakatida falokatzada musulmon qardoshlar haqida" deb nomlangan. Ushbu she'r shunday boshlanadi:

*"Ko'rasiz, Turon eli, Qarsda musulmonlardir,  
Rahm eting holina sizlar, qardoshlardir..."*<sup>40</sup>.

She'rdagi ko'rish mumkinki, falokatga uchragan Qars musulmonlari haqida so'z bormoqda. She'rdagi Tavallo Turon so'zini ham keltirib o'tgan. Shoir ijodida bu so'z ko'p uchraydi. Mazkur she'r Turkiyaning shu nomdagi viloyatida yer qimirlashi munosabati bilan musulmon ahliga atab yozilgan bo'lib, uning davomi quyidagicha:

*"Yordam etmak kuni yetti siza, Turon ahli,  
Bu falokatzadalar, tuhmata qurbonlardir..."*<sup>41</sup>.

<sup>38</sup>Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011. – Б. 30.

<sup>39</sup>Қосимов Б. Миллий уйғониш жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 315.

<sup>40</sup>Бегали Қосимов ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 202.

<sup>41</sup>Ко'rsatilgan manba. – Б. 202.

Ko‘rinadiki, mazkur misralarda ham shoir bevosita Turon ahliga murojaat qiladi. Nega Turon so‘zini takror qo‘llamoqda? Begali Qosimovning ta‘kidlashicha, aynan quyidagilar sabab shoir Turon so‘ziga alohida e‘tibor qaratmoqda. “Turon” turkistonliklarga qadim sha‘n-shavkatni eslatib turardi, dunyoni o‘z mulkiday idora etgan buyuk bobolarning “urho”sini eshittirganday bo‘lardi. Bu ham bir usul. Ikkinchidan, shoir ularning “qardosh”ligiga urg‘u bermoqda. Bu qardoshlik shunchaki din qardoshligi emas, til qardoshligiga ham shama’ bor. U yerda turklar yashaydilar”<sup>42</sup>. Tavallo she‘rlarining asosiy mavzusi vatan haqida ekan, u vatani har doim jonidan ortiq ko‘radi. Hatto, uning har sohada ortda qolishi shoirni iztirobga soladi.

*“Desam, dunyoda bizdek ortda qolg‘on bormu millatdan,  
Bu Turkiston elidin tobmadim iqrar, yo‘x, yo‘x, yo‘x”*<sup>43</sup>.

“Jahon ayvonida” deb nomlangan she‘rida shoir Turkiston elining odamlari ahvolidan afsus qiladi. Tavallo Turkiston, Turon, va Movarounnahr kabi joy nomlarini vatan so‘zi bilan birga qo‘llaydi. Ya‘ni vatanni Turon, Turkiston kabi shaklda anglash ham ko‘p uchraydi:

*“Bahora do‘ndi Turkiston, ochildi g‘unchalar xandon,  
Yuring bog‘larda, ey yoron, bu davronlar g‘animatdur”*<sup>44</sup>.

(“Navro‘zlik haqida” she‘ridan)

Yoki:

*“Shuncha Turkiston elinda nodon ahli ko‘b vale,  
Nosih o‘lmaz ersalar, aqli rasolardin nasud?!”*<sup>45</sup>.

(“Xalq‘a foydasi tegmaganlar haqida” she‘ridan)

Movarounnahr so‘zi ham shoir ijodida vatanni anglash mazmunida keladi:

*“Movarounnahrdur tarixda bizlarga Vatan,  
Arzig‘ay bizlar sanga xizmatda bo‘lsak, jonu tan.  
Ey Vatan, ezgu Vatan, avf ayla, qadring bilmaduk,  
Emdi bilduk, bosh ko‘tarduk, ko‘rki, bizlar uyqudan”*<sup>46</sup>.

Begali Qosimov shoir ijodiga xos bo‘lgan jihatlarni tahlil qilar ekan, bu o‘z navbatida sotsiologik metod amal qiluvchi qonuniyatlar asosida mulohaza yuritadi.

*“Kech gunohini Tavalloni, Vatan, ezgu Vatan.  
Bildi asling, qildi vasfing, bu vatandandur badan”*<sup>47</sup>,

Shoirning mazkur misralarini keltirgan olim vatan haqida quyidagicha mulohaza yuritadi: “Boshqacha aytganda, Vatan va uning sarhadlari bizning badanimiz kabi tan-u jonimizga tutashdir. Vatanga daxl, tanga daxldir, jonga daxldir. U shu qadar tan bilan jonga qo‘shilib ketgan. Uchinchidan, Vatan o‘lik jism emas, jonlik tandir. Va u ushbu tuproqda yashovchi har bir vatandosh tan-u joniga payvasta bo‘lmog‘i lozim”<sup>48</sup>. Bu davr adabiyotining deyarli barcha

<sup>42</sup>Бегали Қосимов ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 203.

<sup>43</sup>Ко‘rsatilgan manba. – Б. 203.

<sup>44</sup>Ко‘rsatilgan manba. – Б. 204.

<sup>45</sup>Ко‘rsatilgan manba. – Б. 204.

<sup>46</sup>Ко‘rsatilgan manba. – Б. 204.

<sup>47</sup>Ко‘rsatilgan manba. – Б. 204.

<sup>48</sup>Қосимов Б. Миллий уйғониш жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 318.

vakillariga tegishli bo'lgan bir xususiyat bor. Bu ham bo'lsa, millat va vatanga xizmat qilish, unda o'zidan hisob so'rash, ya'ni men vatan, millatim uchun nima qildim, degan so'roqning mavjudligi. Tavallo adabiyotimiz tarixida ko'proq 10-yillardagi millatni erk va adolat uyg'otgan jo'shqin, ehtirosli she'rlari bilan qoldi. Bu she'rlar yangi o'zbek she'riyatining maydonga kelishida muhim bir bosqich bo'lib tarixga kirdi. Xususan, Cho'lpon she'riyatining yuzaga chiqishida ma'naviy omillardan bo'ldi. Oybekning shoir she'rlarini alohida bir samimiyat bilan esga olishi sababi shundan.

## XULOSA

Har qanday ijod namunasini biografik o'rganish ayni ijod mohiyatiga chuqurroq kirib borish imkonini beradi. Biografik yondashuv an'anaviy, qadimiy bo'lishi bilan birgan dinamik xarakter kasb etuvchi, davrlar osha rivojlanib boruvchi metoddir. Odam, olim, adab va uning tadqiqotchisi mavjud ekan bunday yondashuvga ehtiyoj bo'laveradi. Dissertatsiyamiz obyekti professor Begali Qosimov ilmiy merosini ilmiy-biografik tadqiq etar ekanmiz, tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosalar chiqardik:

1. Jahon adabiyotshunosligida qonuniy hodisa hisoblangan biografik metod adabiyotshunos hayot yo'li va ijodini ilmiy-biografik jihatdan tekshirishda muhim. Mazkur tekshirish usuli muayyan ijodkor hayot yo'li va ijodini yaxlit holda tadqiq qilish imkonini beradi. Xususan, Begali Qosimov hayot yo'li, ijodi va faoliyatini belgilashda biografik metodning o'rni qat'iy hisoblanadi.

2. O'zbek adabiyotshunosligida ham mazkur tadqiqot metodi o'z tarixi, vakillari va tadqiq prinsiplariga ega. G'arbda "biografik metod" tarzida nomlangan mazkur ilmiy tadqiqot usuliga xos tamoyillar tarixan Alisher Navoiy tazkiralari va "holot"larida, Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"sida, boshqa mumtoz shoirlarimiz "xasbi hol"lari hamda jadid adabiyotshunoslari tadqiqotlarida ham yaqqol kuzatiladi.

3. Begali Qosimovning adabiyotga, ijodga qiziqishiga, eng avvalo, u voyaga yetgan oilaviy muhit (bolaligidayoq xonadonlarida sozga, so'zga mehrning beqiyosligi, otasining o'zbek ziyolisiga xos, so'zni chuqur tushunganligi, o'g'lining o'qishiga e'tibor qaratgani, ustozlari poytaxt ilmiy muhitiga kirib kelishiga ko'maklashgani) ijobiy turtki bergan.

4. Professor Begali Qosimov poytaxt ilmiy muhitidagi eng kuchli olimlar jamoasida tahsil olgani, o'qishni yakunlagandan so'ng xuddi shu jamoada ish boshlagani ham uning ijodiy individualligini shakllantirgan muhim omillardan biri hisoblanadi. Olim O'zbekiston Milliy universitetida ish boshlagan yillari ushbu ilm dargohida ilm fidoyilari G'ulom Karimov, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Laziz Qayumov kabi o'z fanining fidoyilari faoliyat olib borishardi. Ana shunday yirik olimlar bilan bir dargohda ishlashi, ular bilan hamsuhbat bo'lib, ilmiy maslahatlar olishi Begali Qosimovning yirik olim bo'lib yetishishida muhim ahamiyatga ega.

5. Begali Qosimovning kundaliklari tahlil qilinar ekan, ular uch turga ko'ra tasniflanadi. Birinchi turdagi kundaliklar hajman katta bo'lib, ulardagi asosiy

xususiyat ilmiylik hisoblanadi. Olim o‘z ilmiy faoliyati davomida eng qimmatli ma’lumotlarni yozib borgan. Ikkinchi tur kundaliklar esa ilmiylikdan farq qilib, Begali Qosimovning ruhiy, ma’naviy, maishiy hayoti va o‘ta shaxsiy holatlari aks etgani bilan xarakterlanadi. Uchinchi tur Matluba Isoqova kitobidagi xotira, maktublarlardan iborat bo‘lib, olim kundaliklari krill va arab yozuvida yozilgan.

6. Begali Qosimov jadidchilik harakatini kompleks tarzda tekshirar ekan ishlarida jadidchilikning paydo bo‘lishi, harakatning maqsadi va mohiyati, xarakteri va xususiyatlari harakatning faqat adabiygina emas, balki ijtimoiy ekanligini, uning uyg‘onish mafkurasi bo‘lib, xizmat qilishini sof ilmiy uslubda ochib berilgan.

7. Begali Qosimovning fundamental tadqiqotlarida jadid adabiyotining shakllanish tamoyillari, janrlari, mazmuni va mohiyati adabiyotshunoslik mezonlari asosida yoritib berilgan. Begali Qosimov yuzga yaqin jadid adib va adibalari ijodini o‘z millatiga tanitdi, “Istiqlol qahramonlari”, “Maslakdoshlar” kabi adabiy ruknga asos soldi. Shu rukn ostida Behbudiy, Ajziy, So‘fizoda, Ibrat, Sidqiy asarlari, Fitrat, Cho‘lpon, Avloniylarning ko‘p jildlik asarlarini tayyorlab, chop etishga bosh-qosh bo‘ldi.

8. Begali Qosimov jadidchilik va jadid adabiyotini tahlil qilar ekan, mazkur tadqiqotlarning asosiy mag‘zi sifatida millat, vatan, milliylik kabi masalalarning o‘rganilishini qo‘ydi. Shuningdek, ilmiy ijodining asosiy omili sifatida ayni jihatlarga keng ahamiyat berdi.

9. Olim ilmiy ijodida xolislik tamoyili yetakchilik qilar ekan, Begali Qosimov mazkur tamoyil asosida harakat va uning vakillariga nisbatan yuklangan ayblovlarni fosh qildi va bunga erishdi; jadidchilik harakati tarixi, madaniyati, adabiyoti va san’ati, jadid matbuoti bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy ilmiy-nazariy masalalar majmuini yaratib berdi;

10. Begali Qosimov o‘z tadqiqotlarida, asosan, sotsiologik, biografik, qiyosiy-tarixiy usullardan foydalangan. Ushbu tadqiq usullarini yirik manbashunos, adabiyotshunos, nazariyotchi olim sifatida boyitishi bilan birga, germenevtik, qiyosiy-tipologik, struktur va funksional tahlil usullariga ham murojaat qilgan. Sotsiologik tahlilning olim tadqiqotlari uchun muhim ahamiyat kasb etishi uning jadidshunoslik faoliyati bilan bog‘liq.

**SCIENTIFIC COUNCIL DSS.03/30.12.2019.Fil.19.01 ON AWARDING  
SCIENTIFIC DEGREES AT ALISHER NAVOI TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE**

---

**ALISHER NAVOI TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK  
LANGUAGE AND LITERATURE**

**ERGASHEVA MOKHIGUL KHAYDAROVNA**

**THE ISSUE OF SCIENTIFIC-BIOGRAPHICAL STUDY OF BEGALI  
QOSIMOV'S LIFE AND WORK**

**10.00.02 - Uzbek Literature (Uzbek literature of the 20<sup>th</sup> century and current literary  
process)**

**DISSERTATION ABSTRACT**

**of the Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences**

**Tashkent – 2024**

**The theme of dissertation for doctor of philosophy (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number № B2020.2.PhD/Fil2474.**

The dissertation has been carried out at the Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) is placed on the website of the Scientific Council ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) and Information-educational portal «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

<b>Scientific supervisor:</b>	<b>Jo‘raqulov Uzoq Haydarovich</b> Doctor of Philological Sciences, Professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Yusupova Dilnavoz Rahmonovna</b> Doctor of Philological Sciences, Professor
<b>To‘rayeva</b>	<b>Umriniso Rahmatovna</b> Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Qarshi davlat universiteti</b>

The defense of dissertation will take place on “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024 at \_\_\_\_\_ at the meeting of the Scientific Council DSS.03/30.12.2019.Fil.19.01 at Alisher Navo‘i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature .(Address: Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city, 100100. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@navoiyuni.uz](mailto:monitoring@navoiyuni.uz))

The doctoral dissertation can be reviewed in the Information-Resource Centre of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registration under № \_\_\_\_). (Address: 100100, Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city. Phone number: (99871) 281-42-44)

The abstract of dissertation is distributed on “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024.  
(Protocol at the register № \_\_\_\_ of “\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2024).

**H.A. Dadaboyev**  
Chairman of the Scientific Council awarding  
scientific degrees, Doctor of Philological  
Sciences, Professor

**Q.U.Pardayev**  
Scientific Secretary of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Doctor of  
Philological Sciences, Professor

**N.A.Jabborov**  
Chairman of the Scientific Seminar at the  
Scientific Council awarding scientific degrees,  
Doctor of Philological Sciences, Professor

## INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)

**The topicality of the dissertation.** In world literary studies, examples of literary-aesthetic thought began to be studied from the mid-19th century onwards, along with its creator, that is, on the basis of the “work+author” unity. As a result, one of the new scientific research methods, the biographical method, was introduced to the field, and certain results were achieved in the complex examination of a literary work along with its creator. The biographical method investigates the life events and moments that have been transferred into the psyche of the author, exploring the whole of life – author – work and revealing the world behind the text. It identifies the foundations of the imagery constructed in the text. After all, great works of art are the result of the suffering and tireless, dedicated labor of great-hearted individuals, and studying such creativity and its product together is an important issue in the field.

In world literary studies, there have been many scholars who changed theoretical views, developed them, and created their own distinctive scientific schools. In recent years, there has been a particular focus on studying the life paths, works, scientific laboratories, individual characteristics, approaches to literary sources, and the scientific concepts put forward by literary scholars who have developed new principles in the analysis of literary works. More broadly, the productive creative work of an individual has an impact on the intellectual development of a nation. At present, a deeper understanding of the scientific activities of scholars who have contributed to the development of the field helps identify the driving factors of progress, set key principles, and guide their application in real life.

In Uzbek literary studies, the study of the literary heritage created by the Jadids is an extremely important task. This is because: “The enlightening activities of our progressive ancestors, which make up the bright pages of our shared history, and their rich heritage, which has not lost its value and significance, should be thoroughly researched and promoted in cooperation with neighboring countries, international organizations, and prominent foreign scholars. This remains our priority task”<sup>49</sup>. In this regard, the scientific-biographical study of the life and work of literary scholar Begali Qosimov, who specialized in the activities of the representatives of Jadid literature, and the investigation and evaluation of his role in the development of science in the context of world literary studies, can be considered one of the duties and important tasks of literary scholars.

The Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan, such as PF-4958 of February 16, 2017, on “Further Improving Postgraduate Education,” PF-5847 of October 8, 2019, on “Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030,” PF-5850 of October 21, 2019, on “Measures to Significantly Increase the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language,” PQ-3271 of September 13, 2017, on the “Program of Comprehensive Measures for the Development of the System of

---

<sup>49</sup>Mirziyoyev Sh.M. Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlool va davlatchilik g‘oyalari mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga murojaati. <https://kun.uz>. 11.12.2023.

Publishing and Distribution of Book Products, Increasing and Promoting Reading and Book Culture,' PQ-3652 of April 5, 2018, on "Measures to Further Improve the Activities of the Uzbekistan Writers' Union," as well as the President's speeches, such as the one delivered on August 3, 2017, during a meeting with representatives of Uzbekistan's creative intelligentsia, and his instructions during the visit to the Writers' Alley in Tashkent on May 20, 2020, aimed at enhancing the influence of literature, as well as other regulatory legal documents related to this activity, serve as the foundation for the tasks outlined in this dissertation research. This study contributes to the implementation of the goals set out in these documents.

**Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic.** The dissertation was carried out within the framework of priority focus of the development of science and technology of the republic I. "Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state and the ways of their implementation".

**The degree to which the problem has been studied.** The study of the activities of the Jadid scholar and multifaceted scientist Begali Qosimov began in 1992, the year he turned 50. It was in this year that scholars highly evaluated the distinctive features of Qosimov's scientific creativity in the press, and significant attention was given to his personal qualities. In particular, the works of prominent figures of Uzbekistan, such as Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinov, Rustamjon Tojiboyev, Mahmud Sa'diy, Najmiddin Komilov, Sunnatilla Ahmedov, Abdug'afur Rasulov, Jumaxo'ja Nusratullo Atoulllo o'g'li<sup>50</sup> extensively covered Qosimov's scientific work and human virtues. At the same time, a number of studies on Begali Qosimov's life and scientific-pedagogical activities have been conducted by researchers such as Sh. Yusupov, U. Dolimov, Q. Yo'ldoshev, N. Jabborov, Sh. Rizayev,<sup>51</sup> and U. To'rayeva.<sup>52</sup>

In literary studies, the biographical method and its characteristics have been studied by several scholars. The inventor of this method is considered to be Charles Sainte-Beuve (1804–1869)<sup>53</sup>. In later years, the French literary and academic environment recognized A. Morua<sup>54</sup> as a prominent theorist of this

---

<sup>50</sup>Орипов А. Шарафиддинов О. Излаган олим бўлади / Ватан. – Тошкент, 1992. – №13; Тожибоев Р. Маърифат фидойиси / Ватан. – Тошкент, 1992. – №13; Махмуд Саъдий. Муаллимнинг тўйи / Ватан. – Тошкент, 1992. – №13; Комилов Н. Тарих ҳақиқатини айтиш захмати / Халқ сўзи. – Тошкент, 1992. – №245; Аҳмедов С. Тарихимизнинг толмас тадқиқотчиси / Ўзбекистон овози. – Тошкент, 1992. – №248-249; Расулов А. Устозлар изидан. / Тошкент ҳақиқати. – Тошкент, 1992. – №172; Муҳаммад Али. Бир дарахтнинг меваларимиз / Туркистон. – Тошкент, 1992. – №145-146; Нусратулло Атоулло ўғли Жумъазода. Ҳақиқаткаш олим / Маърифат. – Тошкент, 1992. – №.103.

<sup>51</sup>Юсупов Ш. Долимов У. Ризаев Ш. Фидокор олим / Ватан. – Тошкент, 1994. – №11; Йўлдошев Қ. Олимнинг олами / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2002. – №35; Жабборов Н. Пок руҳи миллатнинг калбида. Сўнги жадид киссаси (Бегали Қосимов замондошлари хотирасида. – Тошкент: Турон-иқбол, 2012. – Б. 231; Нусратулло Атоулло ўғли Жумъазода. Ҳақиқаткаш олим / Маърифат. – Тошкент, 1992. – №.103.

<sup>52</sup>Тўраева У. Ўзбек жадид адабиётини ўрганишда Бегали Қосимов тадқиқотларининг ўрни. Филол. фан. б. фалс. док... (PhD) дисс. – Бухоро, 2022.

<sup>53</sup>Сент Бёв Ш. Литературные портреты. Критические очерки. – М.: Художественная литература, 1970.

<sup>54</sup>Моруа А. От Монтеня до Драгона. – М.: Радуга, 1983.

method. In Russian literary studies, scholars such as G.O. Vinokur, A.N. Ribnikov, V.B. Tomashevskiy, B. Tomashevskiy, M.G. Yaroshevskiy, B.S. Meylakh, V.V. Veresayev,<sup>55</sup> as well as contemporary Russian literary critics like S.V. Berezkina, D.Y. Korvyakova, Y.N. Levina, and Y.A. Medvedeva,<sup>56</sup> have contributed to the development of the biographical method. In Uzbek literary studies, researchers such as A. Rasulov, U. Jo‘raqulov, B. Karimov, B. Yo‘ldoshev, D. Quronov, O. Adizova, Z. Quvonov, and Z. Rahmonova<sup>57</sup> have also explored aspects of this issue in their doctoral and candidate dissertations, monographs, articles, and textbooks on literary studies and literary criticism. These works present various views and considerations on the details and nuances of the biographical method.

**The relationship of the topic of the dissertation research with the plan of the research work of the higher educational or research institution where the dissertation was carried out.** The dissertation work was carried out within the framework of the scientific research plan of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi “The issue of scientific-biographical study of begali qosimov’s life and work”.

**The research purpose:** The study of the life path and scientific activity of literary scholar Begali Qosimov from a biographical perspective involves examining his contributions to Jadid studies, his approaches to specific literary phenomena, the principles he applied in evaluating literary works, and the scientific and practical significance of his views as a theoretician.

**The research tasks:** to reveal the role and theoretical functions of the biographical method in literary studies, and to illuminate its methodological foundations by analytically studying the history of the scientific-biographical approach to the works of writers, poets, playwrights, and literary scholars;

To describe the life path, creative legacy, and sources of Begali Qosimov's scholarly works, including his contributions to the history of literature, Jadid studies, literary criticism, and works related to national ideology and spirituality;

The study of Begali Qosimov’s scientific phenomenon involves the inclusion of his unpublished manuscripts, drafts of published research, variants of his

---

<sup>55</sup>Винокур Г.О. Биография и культура. – М.: Государственная академия художественных наук, 1927; Томашевский В.Б. Пушкин. – М. – Л.: Издательство академик наук СССР, 1961; Томашевский В. Б. Пушкин. Работа разных лет. – М.: Книга, 1990; Ярошевский М.Г. Биография ученого как науковедческая проблема. – М.: Человек науки, 1974; Мейлах Б.С. Пушкин и русский романтизм. – М.: Человек науки, 1937; Вересаев В.В. Живая жизнь. – М.: Республика, 1999.

<sup>56</sup>Березкина С.В. Проблема историко-культурного контекста в научной биография А.С. Пушкин. Дисс... д-ра. филол. наук. – СПб., 2010; Корвякова Д.Ю. Жанр писательской биография в творчестве В. Скотта. Дисс... д-ра. филол. наук. – Череповец, 2002; Левина Е.Н. Проблема биографизма в творчестве И.С. Тургенева 1840-1850х год. Дисс... д-ра. филол. наук. – СПб., 2008.

